

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023-yil yanvar-iyul oylari)

1. Sanoat mahsuloti

2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublika korxonalarini tomonidan **345,0** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,7** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 84,0 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,0 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 6,6 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 0,4 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 0,2 %ga, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,6 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida 6,2 %ga, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 8,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,7%), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (146,3 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 87,4 %), kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 87,5 %) kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 98,2 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 100,9 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 107,5 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 28,9 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **38,7** %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **61,3** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 110,2 % ni tashkil etdi.

2. Inflyatsiya darajasi

2023-yilning yanvar-iyul oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **103,3 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 103,1 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 103,4 % ni, xizmatlar bo'yicha 103,4 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-iyulida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 1,33 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 40,4 % i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 1,18 f.d. (35,9 %) va xizmatlarda 0,78 f.d. (23,7 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023-yilning yanvar-iyulida restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari INI 111,9 % ni, sog'liqni saqlash hamda spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha 106,2 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 106,1 % ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 105,5 % ni, transport sohasida 104,0 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 103,9 % ni, oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklarda 102,7 % ni, turar-joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari bo'yicha 102,4 % ni, kiyim va poyabzal bo'yicha 101,8 % ni tashkil etdi.

Bo'limlarning aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, 2023-yil yanvar-iyulidagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishlarining ta'siri 1,09 f.d. ni, sog'liqni saqlash sohasida 0,41 f.d. ni, transport sohasida 0,33 f.d.ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 0,28 f.d. ni, kiyimlar va poyabzallar 0,27 f.d.ni, turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari 0,25 f.d.ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar sohasida 0,24 f.d. tashkil etdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri juda past darajada kuzatildi.

3. Qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-iyul oyida **80489,9** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,8 %**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 19075,6 mlrd. so'mi yoki 23,7 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 47373,5 mlrd. so'm yoki 58,9 %, norasmiy sektor subyektlari tomonidan 14040,8 mlrd.so'm yoki 17,4 % bajarildi.

4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023-yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **156 432,1** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,1 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 16,8 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 18,0 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,8 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 71,6 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,4 % ulush bilan 16 293,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

5. Tashqi savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **34 975,9** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **6 605,2** mln. AQSh dollariga yoki **23,3** % ga ko'paydi. Eksport hajmi **14 954,4** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31,0** % ga ko'paydi (*Nomonetar oltin hisobiga ko'paydi va uning hajmi 5 637,5 mln. AQSh doll.* 2022-yilning shu davriga nisbatan – 89,8 % ga ko'paygan). Import **20 021,4** mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **18,1** % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 24,6 % (14,3 mln. AQSh doll.)ga, mashinalar va transport asbob-uskunolari - 45,9 % (214,8 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 26,6 % (154,0 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 31,8 % (248,1 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunolari – 33,8 % (1 901,2 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 54,8 % (490,1 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 13,5 % (321,8 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **250,1** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **12,4** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlarining 21,1 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,8 punkt), transport xizmatlari 8,5 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,9 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 23,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,6 punkt), savdo xizmatlari 7,6 % ga (o'sishdagi ta'siri 1,9 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarni 22,6 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,9 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (58,2 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 121,1 %), transport xizmatlari (57,6 trln.so'm, 108,5 %) va savdo xizmatlari (59,2 trln.so'm, 107,6 %)ga to'g'ri keladi.

7. Korxonalar va tashkilotlar soni

2023-yil 1-avgust holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **476,7** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 410,0 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (94 906 ta), Toshkent (44 292 ta), Samarqand (42 797 ta), Farg'ona (41 776 ta), Qashqadaryo (34 267 ta), Buxoro (30 165 ta) va Andijon (29 538 ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 154 555 ta, sanoat sohasida – 69 196 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 38 344 ta, qurilish sohasida – 34 284 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 526 tani tashkil etadi.

2023-yil yanvar-iyul oyida respublikada 54,8 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 53,2 mingtani tashkil etdi.

2023-yil 1-avgust holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12 771 tani tashkil etdi. Ulardan 4 849 tasi qo'shma korxonalarni va 7 922 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.